

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

TOSHBOYEV BAHROM SAIDKULOVICH

**X-XIII ASRLARDA FORS-TOJIK TILIDA YARATILGAN TARIXIY
ASARLARDA LEKSIK BIRLIKLAR ETIMOLOGIYASI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti
(tojik tili va tojik adabiyoti)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферат
Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)
po filologicheskim naukam**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Toshboyev Bahrom Saidkulovich

X-XIII asrlarda fors-tojik tilida yaratilgan tarixiy asarlarda leksik birliklar
etimologiyasi..... 3

Тошбоев Бахром Саидкулович

Этимология лексических единиц исторических произведений,
созданных на персидско-таджикском языке в X-XIII вв. 23

Toshboyev Bahrom Saidkulovich

Etymology of lexical units in historical works created in the Persian-Tajik
language in X-XIII centuries 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok opublicovannix rabot
List of published works 52

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

TOSHBOYEV BAHROM SAIDKULOVICH

**X-XIII ASRLARDA FORS-TOJIK TILIDA YARATILGAN TARIXIY
ASARLARDA LEKSIK BIRLIKLAR ETIMOLOGIYASI**

**10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti
(tojik tili va tojik adabiyoti)**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2022.4.PhD/Fil2910 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abdujamol Ashraf Hasanzoda**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Shokirov Tug'ral Sirojovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ soat _____ da majlislar zalida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail:rector) @samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil:140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil "___" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.Q.Muhiddinov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

G.H.Umurova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida soʻzlarning etimologiyasi va lingvistik mansubligi tamoyillarini oydinlashtirish, leksik birliklarning tarixiy bosqichlari va strukturaviy hamda semantik oʻzgarishlarini asoslashga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, kelib chiqishi uzoq oʻtmishga borib taqaladigan va yozma manbalarda dastlabki shakllari saqlanib qolmagan soʻzlar etimologiyasini aniqlash, bosib oʻtgan tarixiy yoʻllari, strukturaviy oʻzgarishlarini belgilash tilshunoslikning muhim tamoyillaridan biri boʻlib qolmoqda. Shu maʼnoda leksik birliklar etimologiyasi hamda tillar oʻrtasidagi oʻzaro soʻz almashuv bosqichlari, ushbu soʻz olish va berish jarayonlarining tarixiy davr va asoslarini izohlash, bahsli lugʻatlar taqdirini yoritish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo ilm-fanida etimologiya sohasi muammolarni oʻrganish, leksik birliklarning lingvistik mansubligini mavjud yozma manbalar asosida aniqlash, ularning tarixiy ahamiyatini belgilashda XX asrning oʻrtalaridan boshlab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yoʻnalish qomusiy (ensiklopedik), filologik, tafsiriy, etimologik, imlo, tarjima va izohli lugʻatlar yaratishning asosiy tamoyillarini ochib berish, tarixiy matnlardagi lingvistik qarashlar hamda leksik birliklar kelib chiqishi xususidagi fikrlarni dalillash mukammal etimologik lugʻatlar tuzish hamda yangi tipdagi elektron platformali lugʻatlarni yaratish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shu bois, tarixiy asarlardagi etimologik qayd va ishoralarni tasniflash, keyingi davr lugʻatshunoslari tafsirlari bilan qiyoslash, tarixchilar qaydlarining ilmiy darajasini baholash, leksik birliklarning asl ildizlarini aniqlash, oʻz aslidan uzoqlashish asoslarini koʻrsatish bugungi tilshunoslik sohasidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda soʻngi yillarda ajdodlar maʼnaviy merosini tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. “Biz davlat tili taraqqiyotini jahondagi yetakchi xorijiy tillar va mamlakatimizdagi turli millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bogʻliq holda koʻramiz”¹. Bu borada milliy anʼanalarni tiklash masalasida tilshunoslikning etimologiya boʻlimi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Etimologiya sohasidagi asarlar umumiy til zaxirasini tartibga solib, adabiy til meʼyorlarini barqarorlashtirishga xizmat qilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”, 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida” Farmonlari, 2006-yil 25-avgustdagi PQ-45-son “Milliy gʻoya targʻiboti va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish toʻgʻrisida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targʻib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

¹ Мирзиёев Ш.: Oʻzbekiston Respublikasi davlat tili tashkil etilgan kun tadbiridagi nutqi // Xalq soʻzi, 2023 yil, 22 oktabr

to‘g‘risida’gi Qarorlari, shuningdek, ilmiy-pedagogik faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida leksik birliklarning etimologik tahlili bo‘yicha bir qator asar va maqolalar e‘lon qilingan bo‘lib, ularda tadqiqotchilar so‘zlarning asl shakli va dastlabki ma‘nosini ochib berishga harakat qilishgan. Ushbu olimlardan A.Bogatova, B.I.Tatarinsev, F.Beznay, G.A.Klimov, J.I.Edelman, L.S.Kovtun, M.N.Peterson, M.N.Bogolyubov, N.M.Shanskiy, O.Semerenyi, O.N.Trubachev, R.L.Acharyan, V.A.Livshis, V.I.Abayev, V.V.Vinogradovlar etimologik lug‘atlar tuzish usullari hamda ayrim so‘zlar etimologiyasi haqida tadqiqot olib borishgan. Xorijiy olimlardan A.L.Xromov, K.G.Menges, M.A.Dandamayev, N.D.Garipova, N.A.Baskakov, O.A.Teush, Q.Roiy, T.P.Gavrilova, V.M.Belkin kabilarning tadqiqotlari umumeroniy tillarga mansub so‘zlarning boshqa tillariga kirib borish masalasiga bag‘ishlangan bo‘lsa, A.K.Matveyev, A.L.Shilov, A.L.Xromov, A.P.Smirnova, P.N.Xonlariy, S.Shamiso, V.E.Oryol, V.M.Mokienkolarning izlanishlarida ayrim hududlar toponimikasi, shevalarda mavjud bo‘lgan so‘zlar etimologiyasi, frazeologik birliklarning kelib chiqishi hamda tarixiy asarlarning umumiy til xususiyatlari kabi masalalar tadqiq qilingan.²

² Богатова Г.А. Историческая и этимологическая лексикография мысли лексикографа о жанре // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 2003, № 1.–С.148-154. Ковтун Л.С. Древние словари как источник русской исторической лексикологии / Л.С. Ковтун – Л.: Наука, 1977. – 111 с. Трубачев О.Н. Этимологический словарь славянских языков Г.А.Ильинского // Вопросы языкознания. – М.: Издательство АН, 1957, № 6. – С.91-96. Эдельман Дж.И. К происхождению иранско-европейских грамматических изоглосс / Дж.И. Эдельман // StudiaIranicaetalanica. Festschrift for prof. VI Abayev on the Occasion of His 95 th Birthday Serie Orientale Roma. Duretta da Gh Gholi. Vol. LXXXII Roma, 1998. – С. 12-14. Виноградов В.В. Из истории слов // Вопросы языкознания. – М.: Издательство АН, 1989, №4. – С.99-110. Климов Г.А. К этимологии Albasty/Almasty / Г.А. Климов, Дж.И. Эдельман // Советская тюркология. – Баку, 1979. – № 3. – С. 68-77. Татаринцев Б.И. Этимология тюркского названия богатыря (batur-bayatur...) / Б.И.Татаринцев // Советская тюркология. – 1986. – №4. – С. 90-96. Трубачев О.Н. Происхождение названий домашних животных в славянских языках (этимологическое исследование) / О.Н. Трубачев. – М.: Издательство АН, 1960. – 115 с. Бабаев К.В. О происхождении личных местоимений в языках мира // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 2009, №4.– С. 119-138. Крыско В.Б.Дъвои чеги: к истории славянских собирательных числительных // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 2020, №4. – С. 55-69. Баскаков Н.А.Элемент *gul* “роза, цветок” в составе каракалпакских женских имен / Н.А.Баскаков // Ономастика Средней Азии. – М.: Наука, 1978. – С.138-143. Белкин В.М.Среднеперсидские заимствования в арабском литературном языке / В.М. Белкин // Ирано-афразийские языковые контакты. – М., 1987. – С. 14-20. Гаврилова Т.П. История арабской по происхождению лексики в русском языке (на материале памятников XII-XVIII вв). М., автореф.дисс.канд. филол. наук. 1981, 22 с. Гарипова Н.Д. Персидские элементы в именах башкир / Н.Д.Гарипова // Ономастика Поволжья. – Уфа, 1973. – С. 81-85. Рой Қ. Луғоти туркӣ, муғули ва чинӣ дар “Таърихи Байҳақӣ” / Қ.Рой // Ёдномаи Абулфазли Байҳақӣ. Чопи дувум, – Машҳад, 1374. – С. 182-199. Теуш О.А. Этимологизация финно-угорских заимствований в русском языке и семантический анализ // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 2003, № 1. – С. 99-108. Менгес К.Г. Восточные элементы в “Слове о полку Игореве” (перевод с английского) / К.Г.Менгес. – Л.: Наука, 1979. – 266 с. Расторгуева В.С. Сравнительно – историческая грамматика западноиранских языков. Фонология [Текст] / В.С.Расторгуева. – М.: Наука, 1990. – 253 с. С. 21-159,

Tojik tilshunoslaridan A.Buxorizoda, A.Hasanzoda, B.Saidiy, B.Siyoyev, B.Rahmonov, D.Saymiddinov, J.Abdulhadov, M.Iskandarova, M.N.Qosimova, M.Davlatova, N.Hikmatulloeva, N.D.Garipova, O.Mahmadjonov, O.Mirmuhammadov, O.Sulaymonov, R.Shodiyev, S.Saloh, S.Halimiyon, Sh.Haydariy, Sh.Ismoilov, T.Zehniy, X.Kamolov tadqiqotlari ham umumeroniy tillarga oid soʻzlar va toponimlar etimologiyasiga bagʻishlangan.³ Shu jumladan, A.Buxorizodaning tadqiqotlarida *qirmoch, nov va nav, dar, gulxan, oshiqpechon, nonvo/nonvoy, shab, kurra, pi, -bo, tamgʻa* soʻzlarining etimologiyasi ochib berilgan boʻlsa, N.Hikmatulloeva oʻz izlanishlarida tojikcha soʻzlarni ingliz tiliga va aksincha, inglizcha lugʻatlarni tojik tiliga yoʻl topishi usullari haqida eʼtibor qaratgan.

Oʻzbekistonlik olimlardan A.E.Begmatov, A.Gʻ.Karimova, A.M.Turobov, H.Hasanov, K.Abdimurodov, N.B.Begaliyev, R.Rahmataliyev, S.Qorayev, Sh.M.Qodirova, Sh.Rahmatullayev, T.Nafasov, T.Rahmatov, Z.Madrahimov, Z.Dosimovlarning ilmiy izlanishlarida ham etimologiya sohasining leksik qatlam, toponimlar, antroponim hamda etnonimlar kabi turli yoʻnalishlari tadqiq qilingan.⁴

³ Бухоризода А. Саргузашти калимаҳо / А. Бухоризода – Душанбе: Дониш, 2005. – 214 с. Ҳикматуллоева Н. Робитаи дучонибаи забонҳои тоҷикӣ ва англисӣ. – Хучанд: Ношир, 2023. – 194 с. Қосимӣ М. Шарҳи бархе аз луғот ва абёти Рӯдакӣ [Матн] / М. Қосимӣ М. // Номаи пажухишгоҳ (маҷмуаи мақолот) / М. Қосимӣ. – Душанбе, 2002, №2. – С. 21-48. Қосимов Б. Нигоҳе ба таърихи лексикаи забони порсии дарӣ [дар асоси маводи “Таърихи Табарӣ”-и Балъамӣ] / Б. Қосимов. – Душанбе, 1995. – 200 с.. Ҳайдарӣ Ш. Этногенез ва этнонимияи ориёиён. – Хучанд: Меъроҷ, 2012. 860 с. Ҳасанзода А.А. Асолати забон ва маҳорати баён. – Хучанд: Ношир, 2018. – С.. Сиёев Б. Ташаккули ҷонишинҳо дар забони тоҷикӣ. Монография / Б. Сиёев. – Душанбе: Ирфон, 2002. – 495 с. Саймиддинов Д. Вожашиносии забони форсии миёна. Монография / Д.Саймиддинов. – Душанбе: Пайванд, 2002. – 310 с. Зеҳнӣ Т. Сарнавишти калимаҳо // Садои Шарқ. 1968. № 6. – С. 103-117. Шодиев Р. Феъл дар “Шоҳнома” (маъно ва сохтор). – Душанбе: ҶДММ “Дақиқӣ”, 2014. – 151 с. Искандарова М.Н. Калимаҳои аслии тоҷикӣ ва ҳамвожаҳои эрониву славянӣ дар “Фарҳангномаи решашиносии забони русӣ”-и М.Фасмер. – Хучанд: Парки технологияи ДДҲБСТ, 2020. – С. 15-40. Исмоилов Ш. Топонимияи водии Рашти Тоҷикистон (тадқиқоти таърихӣ-забоншиносӣ). – Душанбе: ҶДММ “Ҳирадмандон”, 2019. – С. 48-475, Маҳмадҷонов О.О. Топонимия ва микротопонимияи қисмати шимолии водии Ҳисор. – Душанбе: ҶДММ “Шуҷоён”, 2010. – С. 18-158. Саймиддинов Д. Пажухишҳои забоншиносӣ. – Душанбе: Шарқи озад, 2013. – С. 6-25, 36-62, 178-184. Шодиев Р. Таҳқиқи этнолингвистии гӯйишҳои Кӯлоб. – Душанбе: Матбааи ҶДММ “Нӯшбод”, 2022. – 250 с. Саҳ. 122-154. Қосимова М.Н. Таърихи забони адабии тоҷик. Асри X. Китоби дарёӣ. Ҷилди 1 [Матн] / М.Н.Қосимова. – Душанбе: Матбааи ДМТ, 2012. – С. 18-358, Ҳалимов С. Таърихи забони адабии тоҷик (асрҳои XI-XII) [Матн] / С.Ҳалимов. – Душанбе, 2002. – С. 8, 45, 68-72, Давлатзода Р. Усулҳои тафсири таҳфифи вожаҳо дар “Ғиёс-ул-луғот”-и Муҳаммад Ғиёсуддини Ромпурӣ [Матн] / Р.Давлатзода – Хучанд: Нури маърифат, 2019. – 167 с. Давлатова М. Феълҳои сохта ва мавқеи истеъмоли онҳо дар “Зайн-ул-ахбор”-и Гардезӣ [Матн] // Маҷмуаи илмӣ (Материалҳо оид ба забони адабии тоҷик). Ҷилди 42. Серияи филологӣ / М. Давлатова. – Душанбе, 1963. – С. 68-78. Камолов Х. Ибораҳои изофӣ (дар асоси маводи “Таърихи Табарӣ”-и Балъамӣ) [Матн] / Х.Камолов. – Душанбе: Баҳманрӯд, 2011. – 155 с. – С. 9-139. Мирмухаммедов О.Т. Семантические поля разноструктурных глаголов “Таърих-и Байхаки”. автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10. 02. 22 / О.Т.Мирмухаммедов. – Худжанд, 2011. – 26 с. Абдулҳадов Ж.З. Лексические заимствования в “Таърихи Байхаки” Ходжа Абулфазл Муҳаммад бинни Хусайн Байхаки дабир: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10. 02. 22 [Текст] / Ж.З.Абдулҳадов. – Душанбе, 2012. – 23 с. Саиди Б.Ф. Глагольная лексика в “Таърихи Бейхаки”: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10. 02. 22 [Текст] / Б.Ф.Саиди. – Душанбе, 2009. – 24 с. Сулаймонов О. Морфологические особенности “Таърихи Байхаки”: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10. 02. 22 [Текст] / О.Сулаймонов. – Худжанд, 2006. – 25 с.

⁴ Турабов А.М. Самарқанд вилояти этноним ва этноонимларининг таҳлили. Номзодлик диссертатсияси автореферати. [Матн]. – Тошкент, 1999. – 22 б. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент.: Университет, 1-ж. 2000 – 599 бет, 2-ж. 2003 – 599 бет, 3-ж. 2009 – 282 бет. Бегалиев Н.Б., Туробов А.М. Самарқанд топонимияси. СамДҶТИ нашри, 2015 й. 156 б. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 262 б. Дўсимов З., Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. (oʻquv qoʻllanma). – Toshkent: Navroʻz, 2017. – 126 б. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси (иккинчи нашр). – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2007. – 604 б. Nafasov T., Nafasova V. Oʻzbek tili toponimlarining oʻquv-izohli lugʻati. (maktab oʻquvchilari, kollej va litsey talabarlari uchun) – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 80 б. Hakimov Q.M.,

Bu yoʻnalishdagi ahamiyatga molik ishlardan Sh.Rahmatullayevning tadqiqotlari boʻlib, olimning yarim asrlik izlanishlari mahsuli boʻlgan “Oʻzbek tilining etimologik lugʻati”da oʻzbek tili tarkibidagi 2400 dan ortiq turkcha, arabcha va fors-tojik tillariga mansub soʻzlar tahlili keltirilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Tadqiqot Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Fors-tojik tilining leksik-semantik va uslubiyoti masalalari” mavzusidagi ilmiy yoʻnalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi etimologiya boʻlimining tarixiy ildizlarini aniqlash hamda X-XIII asrlar fors-tojik tarixiy asarlaridagi etimologik qarashlarning etimologik va izohli lugʻatlari uchun tayanch manbalik darajasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarixiy asarlar muallif va tarjimonlarining leksik birliklarning lingvistik mansubligiga eʼtibor qaratganligini ochib berish;

X-XIII asrlar tarixiy asarlarida qayd etilgan leksik birliklarni maʼnoviy guruhlarga boʻlinganligini asoslash;

soʻz, soʻz birikmalari, ibora va terminlarning etimologik izohlash masalasida mazkur davr tarixiy asarlarining umumiy va farqli tomonlarini ochib berish;

tarixiy asarlar muallif va tarjimonlari tomonidan batafsil yoki qisqacha izohlar berish yoʻllarini tanlanganlik sabablarini aniqlash;

X-XIII asrlar tarixchi va tarjimonlari tomonidan keltirilgan etimologik tushuntirishlarning ilmiy darajasini ochib berish;

statistik jihatdan leksik birliklarning paydo boʻlish tarixini izohlashda bir asarning boshqasidan ustunligini dalillash.

Tadqiqotning obykti sifatida Abusaid Abdulhayning “Zayn-ul-axbor”, nomaʼlum muallifning “Tarixi Siston”, Ibn Balxiyning “Forsnoma”si kabi fors-tojik tilida yozilgan hamda Abuali Balʼamiyning “Tarixi Tabariy”, Abubakr Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” kabi arab tilidan tarjima qilingan asarlari tanlanagan.

Tadqiqotning predmetini X-XIII asrlar fors-tojik tarixiy asarlaridagi etimologik qayd va ishoralarini aniqlash va ularning ilmiy haqiqatga moslik darajasini oʻrganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tasniflash, shakliy va maʼnoviy tasniflash, qiyosiy-tipologik, statistik analiz usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Tarixi Tabariy”, “Zayn-ul-axbor”, “Tarixi Buxoro”, “Tarixi Siston”, “Forsnoma” asarlarining boshqa manbalarda uchramaydigan *muhammadiy, musayyabiy, buzurgfarmoy, mardigiron, idi vard, komgoriy, Hamukat* kabi arxaik soʻzlarni saqlovchi yagona manbalar ekanligi ochib berilgan;

tarixiy asar mualliflarining *kohin, hijriy, melod (milod), moida, nofila, ramim* soʻzlaridagi fonetik, leksikologik, leksikografik kabi lingvistik sharhlari

etimologik, izohli, ensiklopedik, tarjima lugʻatlari xususiyatlarini birlashtirgani ochib berilgan;

arablarda kishilarning ism, laqab, kunya, faxriy unvon, taxallus kabi bir qancha qoʻshimcha ismlar mavjudligi aniqlanib, Nizor, Hoshim, Quraysh qabilalarning nomlanishi kishilarning laqablaridan boshlanishi isbotlangan;

Qurʻondagi arablashgan forscha *sijjil* soʻzi Ibn Balxiy tomonidan aniqlangani hamda bugungi kunda *ibriq* (*koʻza, suv idishi*), *istabraq* (*mato, harir*), *barzax* (*juft narsani bogʻlovchi*), *burhon* (*dalil, hujjat*), *tanoʻr* (*tandir*), *junoh* (*gunoh*), *ravza* (*bogʻ*), *zaboniya* (*doʻzaxga mutavakkil farishtalar*), *zarobiy* (*tilla suvi*), *zamharir* (*qattiq sovuq, ayoz*), *sijjil* (*qotgan loy*), *siroj* (*chiroq, fonus*), *gʻamza* (*noz, karashma*), *fil* (*hayvon turi*), *kaʻs* (*jom, suv idishi*), *kanz* (*ganj, xazina*), *majus* (*zardusht, otashparast, avesto dinining vakili*), *marjon* (*ziynat vositasi*) kabi unumeroniy tillarga mansub 18 ta soʻzlar borligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dissertatsiya muallifi tomonidan oʻrganilgan tarixiy asarlar materiallari asosida qisqacha etimologik va izohli lugʻat tuzilgan boʻlib, unda 271 ta leksik birlikning etimologik va lugʻaviy izohi keltirilgan;

X-XIII asrlarda yozilgan tarixiy asarlarda 9 tilga mansub leksik birliklarning etimologik tahlil va tafsirlari uchrashi ochib berilgan;

tarixiy asarlarda boshqa manbalarda uchramaydigan Markaziy Osiyo xalqlarining milliy marosimlari va urf-odatlar bilan bogʻliq terminlar, antroponim, etnonim, toponimlar etimologiyasi oid qarashlar mavjudligi dalillangan;

tadqiqotda mavjud boʻlgan tilshunoslik fanini takomillashtirish, etimologiya sohasidagi yangi nazariy gʻoyalarni aniqlash, leksik birliklarni shakl oʻzgarishlari, tillarga mansublik va etimologik nuqtayi nazardan tahlil qilish va tavsiflashga doir yangi maʼlumotlar asoslangan;

tarixchilarning lingvistik tahlillari orasida bugungi tilshunoslikning etimologiya, lugʻatshunoslik, til tarixi, qiyosiy tipologiya sohalariga oid qarashlar mavjudligi va mazkur qaydlar ilk lisoniy izohlar ekanligi isbotlangan;

anroponimlarning boshqa tillarga oʻtishi va oʻzlashtirilishi natijasida asl mohiyatidan uzoqlashish va mavhum mazmun-mohiyat kasb etishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muallif X-XIII asrlar tarixiy asarlaridagi etimologik qarashlarni tahlil qilish jarayonida ularning obyektiv haqiqatga yaqinlik darajasini aniqlash maqsadida Eron, Tojikiston, Oʻzbekiston va Yevropa olimlarining xulosalari, tadqiqotchi va lugʻatshunoslarning xulosalari bilan qiyoslanganligi, olingan natijalarni vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, u fors-tojik etimologiyasi fani tarixini ochish hamda leksik birliklarning katta guruhining paydo boʻlishidagi bahsli nuqtalarni aniqlash, shuningdek, etimologiyaga oid tadqiqot ishlarini olib borish va soʻzlarning kelib chiqishi tarixi sohasining nomaʼlum tugunlarini ochishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, u etimologiya boʻyicha darslik va oʻquv majmualari yaratilishida muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Tadqiqot materiallari asosida oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakultetlari

talabalari uchun tojik tilshunosligi tarixi, ayniqsa, leksik birliklar etimologiyasi haqida maxsus kurs va seminarlar tashkil etish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. X-XIII asrlarda fors-tojik tilida yaratilgan tarixiy asarlarda leksik birliklar etimologiyasini tadqiq etishdan olingan ilmiy natijalar asosida:

Qur'ondagi arablashgan forscha sijjil so'zi Ibn Balxiy tomonidan aniqlangani hamda bugungi kunda ibriq, istabraq, barzax, burhon, tano'r, junoh, ravza, zaboniya, zarobiy, zamharir, sijjil, siroj, g'amza, fil, ka's, kanz, majus, marjon kabi umumeroniy tillarga mansub 18 ta so'zlar borligi haqidagi ma'lumotlardan Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan 2014-2016 yillarga mo'ljallangan Tempus Project 544161- TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" fundamental loyhasini bajarishda foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024 yil 9-yanvardagi 48/02-son ma'lumotnomasi). Natijada tarixchilar qarashlarining obyektiv haqiqatga yaqinlik darajasini aniqlash uchun mazkur etimologik tahlillarni Eron, Tojikiston, O'zbekiston va Yevropa olimlarining xulosalari, tilshunos va lug'atshunoslarning qarashlari bilan solishtirib, keltirilgan etimologik izohlarning ilmiy darajasi ochib berilganligi o'rganishga zamin bo'lgan;

"Tarixi Tabariy", "Zayn-ul-axbor", "Tarixi Buxoro", "Tarixi Siston", "Forsnoma" asarlarining boshqa manbalarda uchramaydigan muhammadiy, musayyabiy, buzurgfarmoy, mardigiron, idi vard, komgoriy, Hamukat kabi arxaik so'zlarni saqlovchi yagona manbalar ekanligi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlardan Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturining 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024 yil 9-yanvardagi 47/02-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanishi orqali tarixiy asarlarda o'ndan ortiq tillarga mansub leksik birliklar etimologiyasiga oid qarashlar mavjudligi va ularning ilmiylik darajasi o'rganilganligi, tarixiy asarlarda shu kungacha yaratilgan lug'atlarda uchramaydigan so'zlarning izohlari mavjudligi hamda yangi etimologik va izohli lug'atlar tuzishda ularning muhim manba sifatida xizmat qilishining isbotlanganligi haqidagi nazariy xulosalari asoslangan;

Dissertatsiya muallifi tomonidan tarixiy asarlardagi etimologik qaydlar asosida "Farhangi muxtasari reshashinosi va tafsiri (dar asosi mavodi tarixnomahoi asrhoi X-XIII-i forsi-tojiki)" nomli etimologik lug'at tuzilgan. Unda tarix kitoblarida uchragan so'zlarning etimologik hamda lug'aviy ma'nolari tahlil qilingan. Tarixiy asar mualliflarining *kohin*, *hijriy*, *melod (milod)*, *moida*, *nofila*, *ramim* so'zlaridagi fonetik, leksikologik, leksikografik kabi lingvistik sharhlari etimologik, izohli, ensiklopedik, tarjima lug'atlari xususiyatlarini birlashtirgani mazkur lug'atda asoslab berilgan. (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining 2024 yil 2-apreldagi 9-son yig'ilish bayonnomasi) Mazkur lug'atda bir qator lug'aviy so'zlar, toponim, antroponim va etnonimlar etimologiyasini aniqlashtirilgan. Tarixiy asarlarda tahlil qilingan bir qator

soʻzlarning sharhi keyingi davr lugʻaviy asarlarida uchramasligini eʼtiborga olsak, ushbu lugʻat talabalarning etimologiya, leksikologiya kabi sohalardagi bilimlarini oshirishga xizmat qiladi.

Arablarda kishilarning ism, laqab, kunya, faxriy unvon, taxallus kabi bir qancha qoʻshimcha ismlar mavjudligi ahamda *Nizor, Hoshim, Quraysh* qabilalarning nomlanishi kishilarning laqablaridan boshlanishi haqidagi ilmiy xulosalaridan 2022-2023 yillarda Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Oʻzbekiston” teleradiokanali “Bedorlik”, “Adabiy jarayon”, “Taʼlim va taraqqiyot”, “Millat va maʼnaviyat” eshittirishlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston teleradiokanali”ning 2024 yil 1-fevraldagi 02-36-01-son maʼlumotnomasi) Natijada radiodasturlarda berilgan ilmiy xulosalar tinglovchilarda milliy ismlarning kelib chiqish tarixi va maʼnolari, ism tanlash anʼanasini shakllantirishda amaliy ahamiyatga ega boʻldi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishi natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda maʼruza koʻrinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 12 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 4 ta maqola chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi 160 betdan iborat boʻlib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, ishning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Leksik qatlam soʻzlarining etimologiyasi**” deb nomlanib, uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli “**Umumeroniy tillarga mansub soʻzlar etimologiyasi**” deb nomlanadi.

Fors-tojik tilshunosligi qadimiy tarixga ega boʻlib, uning uzoq oʻtmishini tahlil qilish, shakllanish tarixini ochib berish – rivojlanishining murakkab yoʻllarini oydinlashtirishga imkon beradi. Jumladan, X-XIII asrlar tarixiy asarlarida tarixchilar nafaqat tarix fanining bilimdonlari, balki tilshunos olim sifatida ham namoyon boʻlib, lingvistika ilmining oʻziga xos masalalarini tahlil qilish va tadqiq etishga katta hissa qoʻshganligi namoyon boʻladi. Bunday asarlarda oʻquvchi tilshunoslikning eng kam oʻrganilgan etimologiya sohasining rivojlanishiga asos boʻlishi mumkin boʻlgan juda koʻp sharhlarga duch keladi. Jumladan, tadqiqot obyekti boʻlgan tarix kitoblarida umumeroniy, arab, hind, ibroniy, suryoniy, turk,

habash, rum, yunon kabi tillarga mansub leksik birliklarning etimologik izohlarini uchratish mumkin. Biz “*eroniy tillarga mansub yoki umumeroniy tillariga mansub leksik birliklar*” birikma termini ostida vujudga kelishi miloddan avvalgi III-II ming yilliklar oralig‘i yoki boshqa taxminlarga binoan miloddan avvalgi 2 ming yillikning birinchi yarmiga borib taqaladigan umumeroniy tillarga mansub bo‘lgan so‘zlarni nazarda tutganmiz.

Mazkur faslda fors-tojik tillariga mansub *dirafsh, zindiq, sijjil, shed, Navro‘z, ganji bodovard* kabi bir qancha lug‘aviy birliklarining shakli, tarkibi, ma‘nosi, tarixi, vujudga kelish asoslari va lingvistik mansubligi haqidagi tarixchilar nuqtayi nazarlari o‘rganilib, keyingi davr tadqiqotlari bilan taqqoslandi. O‘rganishlar shuni isbotladiki, tarixchilarning *dirafsh, sijjil, g‘itrifiy, muhammadiy, musayyibiy, zandanajiy, buzurgfarmoy, dabirkad, eronog‘ar (eronandarzgar), mardigiron, guli komgoriy, xiroji hamdostoniy, saroyi shumurda* haqidagi etimologik talqinlari nafaqat ilmiy asoslangan tahlillar sirasiga kiradi, balki ulardan ayrimlari faqatgina zikr etilgan tarixiy davr manbalarida saqlanib qolgan va boshqa manbalarda uchramaydi. Boshqa bir guruhi esa keyingi davr lug‘atshunoslari uchun faktik material vazifasini bajarib, tilshunos olimlar leksik birliklar izohida tarixchilarning sharhlariga ko‘p bora murojaat qilishgan.

Muarrixlar tomonidan etimologiyasi keltirilgan umumeroniy tillarga mansub leksik birliklarni tuzilish jihatidan sodda, sodda yasama, qo‘shma va so‘z birikmalari ko‘rinishida tasniflash mumkin. Shuningdek, mazkur guruh so‘zlarini davlat ramzlari (*dirafsh*), fasl-oy nomlari (*tir*), iqtisodiy atamalar (*g‘idrifiy, muhammadiy, musayyibiy, ganji bodovard, xiroji hamdostoniy*), gazlama nomlari (*zandanajiy*), marosim va bayram nomlari (*mehrgon, obongon, sada, bahmanjana, mardigiron, ozarjashn, idi vard*), o‘simlik nomlari (*guli komgoriy*), mansab va unvon nomlari (*buzurgfarmoy, eronog‘ar, dabirkad*) kabi ma‘noviy guruhlariga ajratish mumkin.

So‘zlarning lug‘aviy izohi va etimologiyasi borasidagi tarixchilarning qayd va ishoralari keyingi davr lug‘atshunoslari, xususan, “Burhoni qote”, “G‘iyos-ul-lug‘ot”, “Farhangi forsi” (“Fors tili lug‘ati”), “Lug‘atnoma”, “Farhangi reshahinosii zaboni forsi” (“Fors tilining etimologik lug‘ati”) kabi lug‘aviy asarlar mualliflariga qimmatli manba sifatida katta yordam bergan.

Bobning “**Jonli tillarga mansub olinma so‘zlar etimologiyasi**” deb nomlanuvchi ikkinchi faslida arab, hind, turk tillariga mansub leksik birliklar tahlili tegishli mavzular ostida berilgan. Mazkur bobda fors-tojik tilining arab, rus, turk (o‘zbek, ozarbayjon, tatar, qozoq...), ingliz, fransuz, nemis, yunon, ispan, gurji, arman, hind tillariga so‘z berishi va o‘z navbatida modiy, sug‘diy, port, yunon, hind, arab, oromiy, suryoniy, turk, mo‘g‘ul, rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan, portugal kabi tillardan so‘z qabul qilishi, bu holatning tarixiy asoslari haqida ham mulohaza yuritilgan.

Mazkur davr tarixiy asarlarida eroniy va arabcha so‘zlardan tashqari suryoniy, ibroniy (ibriy), rum, yunon, turk, hind, habash, sind, harroniy, tabariy va boshqa tillardan olingan so‘zlar ham tahlil qilingan va alohida hollarda ularning etimologiyasiga to‘xtalib o‘tilib, tarixiy asarlarda etimologiyasi zikr etilgan leksik birliklarning statistik ma‘lumotlari keltirilgan. Ayniqsa, tillarning qadimiy aloqalari natijasida arab va fors-tojik tillari o‘rtasida ko‘plab bahsli lug‘atlar borligi

yoki fors-tojik va turkiy tillar guruhi o'rtasidagi uzoq o'tmishdagi lug'at almashish hodisalari natijasida ayrim so'zlarning bir tilga mansub bo'lib, boshqa tilda shuhrat topishi kabi holatlar muhokama qilingan.

Tahlil qilingan olinma so'zlarning katta qismini arab tiliga mansub leksik birliklar tashkil etadi. Bu guruh so'zlar xususida tarixchilarning ayrim izohlari etimologik, boshqa sharhlari tarjima yoki izohli lug'atlar xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Shunday holatlar ham uchraydiki, tarixchilar tomonidan keltirilgan sharhlar bir necha xildagi lug'at xususiyatlarini o'zida mujassam etgan.

Arabcha leksik birliklarning ma'nosini tushuntirishda tarixiy asar muallif va tarjimonlari o'zlarining yuksak mahoratini ko'rsatib, so'zlarning eng nozik ma'nosigacha e'tibor berganlar. Xuddi shunday talqinni *hars* so'zi misolida ko'rish mumkin. Masalan, ushbu so'zga "Farhangi zaboni tojiki" ("Tojik tili lug'ati") asarida "ziroat, ekin, dehqonchilik, ekin-tekni" ma'nosida talqin qilinsa,⁵ "Tarixi Tabariy" tarjimasida u yanada kengroq mazmunda, ya'ni ekinlarning umumiy ma'nosida emas, balki "sarg'aygan ekinlar" mazmunida izohlanadi va tarixchining arabcha so'zlarning ma'no nozikliklaridan xabardorligini ko'rsatadi: "Va "hars" shuki, sarg'aygan bo'lsa, "zar" deb hali yashil holatiga aytiladi".⁶

Faslning "**Hind tiliga mansub leksik birliklar etimologiyasi**" mavzusida "Zayn-ul-axbor" asarida keltirilgan hindlarning toifalari, urf-odatleri, bayram va marosimlari bilan bog'liq bir qator lug'atlar tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqot obyekti bo'lgan tarixiy asarlarda *Irtish*, *yabg'u* kabi so'zlarning turk tiliga mansubligi aytib o'tilgan. Mazkur so'zlarni tahlil qilish jarayonida fors-tojik va turkiy xalqlar o'rtasidagi aloqalar va mazkur xalqlar tilidagi ko'p sonli lug'at almashuvlari ularning yonma-yon, qo'ni-qo'shnihilikda, qismatdosh, dindosh bo'lib yashashlari natijasi ekanligiga alohida urg'u berilgan.

Birinchi bobning uchinchi fasli "**O'lik tillarga mansub olinma so'zlar etimologiyasi**" deb nomlangan bo'lib, unda tarixchilarning ibroniy, suryoniy, rum (lotin) va yunon tillariga mansub leksik birliklar etimologiyasi oid qarashlari muhokama qilingan. Mazkur guruhga mansub so'zlar tahlili jarayonida tarixchilarning dunyo tillari tarixi, boshlanmasi, tarqalishi va rivojlanishi xususidagi fikrlari ham muhokama qilingan. Chunonchi, Ibn Jarir, Bal'amiy va Gardeziy kabi tarixchilarning fikriga ko'ra, ibroniy va suryoniy tillari eng qadimiy tillar bo'lgan. Xususan, diniy rivoyatlarda suryoniy tili barcha tillarning manbai, Odam alayhissalom va jannat ahlining tili hisoblangani keltiriladi. Tarixchilardan Ibn Jarirning "Tarix-ur-rusul va-l-muluk" asarida ham payg'ambar (s.a.v.) hadislari rivoyatida to'rt payg'ambar: *Odam*, *Shis*, *Nuh* va *Xanux* payg'ambarlarning tili suryoncha ekanligi qayd etilgan.⁷

Mazkur tarix kitoblarida tillar yaralishi bilan bog'liq masalalar qatorida so'zlarning, ayniqsa, ibroniy tiliga mansub leksik birliklar etimologiyasiga oid

⁵ Фарҳанги забони тоҷикӣ. Дар зери таҳрири М.Ш. Шукуров, В.А. Капранов, Р. Ҳошим, Н.А. Маъсумӣ. – М.: Советская энциклопедия. 1969. 2-ж. – С.735.

⁶ Бальямӣ, Абуалӣ Муҳаммад ибни Муҳаммад. Таърихи Табарӣ. Ҷ.1, с. 3-817 с.; Ҷ. 2, 818-1632 с. [Матн] / А. Бальямӣ. Бо муқаддима ва тавзеҳоти М. Умаров ва Ф. Бобоев. – Техрон, 1380 / 2001. 1-ж, 340-б.

⁷ Табарӣ, Абучаъфар Муҳаммад ибни Ҷарир. Таъриху-р-русули ва-л-мулук (тарҷума аз арабӣ, мутарҷим Абулқосими Поянда). Бо таҳрири умумии Нурмуҳаммад Амиршоҳӣ. Китоби 1 (Ҷ.-ҳои 1, 2 ва аввали ҷ. 3). – Душанбе: Сарредаксияи илмии Энциклопедияи Миллии Тоҷик, 2014. 1-к, 119-б.

muhim fikrlar mavjud bo'lib, ularni ma'nosiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

- a) shaxslarning ism va laqablari: *Buxtunnasr, Isroil, Muso, Yahyo*;
- b) bayram va marosim nomlari: *mazol, arabo, barkas, isorat, fis'h, hanka*;
- d) diniy atamalar: *ta'yino, hittatun, hintatun*;
- e) xalq, qavm nomlari (etnonimlar): *yahud, bani Isroil*.

Qayd etilgan leksik birliklarning aksariyati ibroniy tili va yahudiy dinining ko'p qo'llaniladigan so'zlari, faol atama hamda ismlar bo'lib, ularning izohini bir qator o'rta asr manbalarida uchratish mumkin. Biroq, qadimgi yahudiylarning marosim va urf-odatlarini ifodalovchi *mazol, arabo, barkas, isorat, ta'yino, fis'h, hanka* kabi bir qancha so'zlar zikr etilgan tarixiy asarlardan boshqa manbalarda deyarli uchramaydi. Shu boisdan tarixchilarning ushbu turkum so'zlarga oid qaydlari alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, ushbu qadimiy urf-odatlarining ayrimlari bugungi kunda yo'qolib ketganligi sababli bunday leksik birliklar unutilib, noma'lum lug'atga aylanganligi tarixchilar qaydlarining ahamiyatini yanada oshiradi.

Faslning **“X-XIII asrlarga oid tarixiy asarlarning lug'atnomalarga o'xshashligi”** mavzusida tarixchilarning leksik birliklar sharhida tarjima va tafsiriy lug'atlarga o'xshash sharhlari muhokama qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Toponimlar etimologiyasi”** deb nomlanib, uch fasldan tashkil topgan.

Toponimlarning etimologiyasini o'rganishda X-XIII asrlarda fors-tojik tilida yozilgan yoki arab tilidan tarjima qilingan tarixiy asarlarning ahamiyati katta bo'lib, tarixiy asarlarda kichik yoki katta geografik hududlar nomini ifodalovchi toponimlar boshqa so'zlarga nisbatan katta ulushni tashkil etadi. Zikr etilgan davr tarix kitoblariga bir tomondan, dunyo yaratilishidan to XIII asrgacha bo'lgan davrda xalqlar hayotining turli tarixiy davrlarini oydinlashtiradigan juda muhim manba sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan, tarixchilarning toponimlar etimologiyasiga oid aksar fikrlari zamonaviy tilshunoslik ilmining xulosalariga mos kelishi bilan diqqat markazida turadi.

Tadqiqot obyekti bo'lgan tarixiy asarlarda etimologiyasi tahlil qilingan 45 ga yaqin toponimlarni aniqlangan bo'lsa, ularning aksariyati eroniy tillarga mansub (25 adad), nisbatan kamroq soni arabcha (16 ta), oz qismi (4 ta) esa boshqa tillarga mansub leksik birliklardir.

Fors-tojik tarixchilari tomonidan tahlil qilingan *Ganafa, Anbor, Zarang, Zovul, Zobin, Nimro'z, Navband, Ko'hi Qoran (Qoran tog'i)* kabi eroniy tillarga mansub joy nomlari uzoq o'tmishga ega bo'lib, ulardan ayrimlari o'z mavjudlik davrida ma'lum tarkibiy o'zgarishlarga ham uchragan.

Tarixiy asarlar mualliflarining *Dorobgird, Kaygird, Haftoshyon, Jundi Shopur* kabi joylar haqidagi fikrlari zamonaviy tadqiqotchilar nuqtayi nazari bilan mos kelib, bu holat X-XIII asrlarga oid tarix kitoblarining mustahkam ilmiy asosga egaligidan dalolat beradi. Biroq ayrim toponimlar xususida tarixchilar va keyingi davr olimlarining qarashlari o'rtasida bahsli masalalar yuzaga kelib, shu jihatdan tarixiy asarlarda zikr etilgan toponimlar xususidagi qarashlarni *ilmiy asoslangan va ilmiy asoslanmagan qarashlar* kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Fors-tojik xalqi islomiy hayotni qabul qilgandan so‘ng, arab xalqining kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti, tili, adabiyoti, geografik mavqei, ismlari – umuman hayotining barcha jabhalari olimlarimiz tadqiqotlarining muhim qismiga aylandi.

Zikr etilgan tarixiy asarlarda arab tiliga mansub *Arafot, Bayzo, Balqo, Basra, Dor-un-nadva, Jazira, Jisr-ul-hijor, Zot-ut-tavovis, Lavhakut, Mavze’-ul-xishob, Makka, Mohayn, Haram, Hira* kabi bir qator qadimgi va keyingi (asarlarda yozilgan davr nuqtayi nazaridan) davr toponimlarining kelib chiqishiga oid etimologik qarashlar uchraydi. Bunday leksik birliklarni ifodalagan o‘rinlariga ko‘ra *ibodatgoh nomi, hovli-ko‘cha nomi, tog‘ nomi, ko‘prik nomi, qal‘a nomi, qishloq nomi, saroy nomi, shaharlarning nomlari* kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Manbalarda yasaliş jihatdan qismlari ikki tildan tashkil topgan toponimlar ham uchraydi. Biroq ularning soni ko‘p emas. Bunga misol qilib fors-tojikcha so‘zdan *-ayn* arabcha komponent hamda arabcha+hindcha so‘zlar qo‘shilishidan yasalgan *Mohayn, Zot-ut-tavovis, Jo‘yi Mo‘liyon* kabi toponimlarni ko‘rsatish mumkin.

Tarixchilar tomonidan kelib chiqishi xususida fikr bildirilgan toponimlarni hosil bo‘lish manbasiga ko‘ra ham bir necha turlarga bo‘lish mumkin, ya‘ni ularning bir qismi kishi ismlari (antroponim), boshqa guruhi xalq va qabila nomlari (etnonim), yana bir qanchasi lug‘aviy ma‘no va shu kabilardan vujudga kelgan. Biz ham ayni shu xususiyatlarni e‘tiborga olgan holda, tarixiy asarlarda etimologiyasi keltirilgan toponimlarni quyidagi ma‘noviy guruhlarda ostida tahlil qilishga qaror qildik va fasllarga ajratdik:

1. Lug‘aviy ma‘no asosidagi toponimlar. Ushbu faslda *Anbor, Arafot, Arok, Bayzo, Basra, Dor-un-nadva, Zovul, Nimro‘z, Zot-ut-tavois, Irtish, Lavhakut, Makka / Bakka, Mohayn, Ozarboygon / Ozarboyjon, Romush, Haram, Harora, Jazira, Jo‘yi Mo‘liyon* kabi toponimlarning tahlillari berilgan.

2. Antroponim asosli toponimlar. Mazkur faslda *Balqo, Zarang, Zobin, Hamukat, Rum, Shopurkom, Qustantin* kabi joy nomlari xususidagi tarixchilarning qarashlari muhokama qilingan.

3. Etnonim asosli va noma‘lum asosli toponimlar. Ikkinchi bobning bu faslida tarixchilarning *Balx, Eronshahr, Samarqand, Siston, Turon* kabi toponimlar xususidagi qarashlari zamonaviy tilshunoslarning xulosalari bilan solishtirilgan.

Dissertatsiyaning ushbu qismida ham birinchi bobdagi kabi tahlil tizimi davom ettirilib, dastlab X-XIII asrlarga oid tarixiy manbalar muallif va tarjimonlarining qarashlari tilga olinib, so‘ngra ularning fikri bugungi tadqiqotchilarning xulosalari bilan solishtirilgan.

Tarixiy manbalarda etimologiyasi tahlil qilingan toponimlar xususida aytish mumkinki, ko‘p hollarda tarixchilarning qaydlari ilmiy haqiqatni o‘zida aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda ayrim hollarda tarixchilarning rivoiy etimologiyaga tayanish yoki noilmiy ma‘lumotlarni asos sifatida qabul qilish holatlariga ham duch kelinadi. Bu esa o‘sha davrda tojik tilshunosligi, ayniqsa, uning etimologiya sohasi bugungi kunda mavjud shaklda rivojlanmaganligi bilan bog‘liqdir. Qolaversa, zikr etilgan mutafakkirlar tilshunos emas, tarixchi bo‘lishgan va ularning leksik birliklar izohida ba‘zan xalq etimologiyasiga tayanishlari ham ilk etimologik qarashlar sifatida ahamiyatga molikdir.

Xulosa qilib aytganda, X-XIII asr tarixiy manbalari, xususan, “Tarixi Tabariy”, “Zayn-ul-axbor”, “Tarixi Buxoro”, “Forsnoma” asarlarida bir qator umumeroniy tillarga mansub joy nomlari bilan birga arabcha va boshqa tillarga mansub toponimlarning etimologik izohlarini kuzatish mumkin. Bu o‘rinda tarixchilar nafaqat o‘z ona tillarining bilimdoni, balki boshqa tillarni ham yaxshi biladigan olimlar sifatida namoyon bo‘lishadi. Ushbu toponimlarning ba’zilari tarixiy asarlarning aksariyatida tahlil qilingan bo‘lsa, ayrimlari faqat bitta asarda izohlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Antroponimlar hamda etnonimlar etimologiyasiga oid qarashlar”** va uning birinchi fasli **“Antroponimlar etimologiyasiga oid qarashlar”** deb nomlangan.

Til tarixini o‘rganish va so‘zlarning asl o‘zagini aniqlashda tadqiqotchilar tomonidan *antroponim* deb yuritiladigan shaxs ismlarining o‘rni beqiyosdir. Ma’lumki, atoqli otlar tilning lug‘aviy so‘zlariga qaraganda kamroq o‘zgaradi va ular o‘zida leksik birliklarning qadimiy shakllarini saqlab qoladi. Hatto, ayrim so‘zlarning o‘zagini faqat qadimgi ism va laqablar tahlilidan aniqlashimiz mumkin. Bu borada taniqli antroponimshunos olim O.G‘afurovning “Sharhi ism-u laqabho” (“Ism va laqablar izohi”) kitobida shunday deyiladi: “Ayrim so‘zlarning o‘zagi, noma’lum lug‘atlar ta’rifi va kelib chiqishini faqat qadimgi davrlarga tegishli ism va laqablar tarixini o‘rganish orqali topa olamiz”.⁸

Atoqli otlar tilning mavjud so‘zlari asosida yasaladi, ya’ni shaxs, narsa va joyni bildiruvchi otlar lug‘at so‘zlaridan vujudga keladi va ko‘p hollarda nomlovchilarning tiliga mansub bo‘ladi. Lekin ismlarning tahlili va talqini tilshunoslikning nozik va murakkab masalalaridan hisoblanib, ularning kelib chiqishi lug‘aviy ma’noga asoslansa ham, nomlanish kayfiyati butunlay boshqa mavzudir. Xususan, kishilarning ism, taxallus va laqablari xalqning ijtimoiy, diniy, mifologik qarashlari hamda etnik an’analari o‘zida mujassam etadi. Bobning birinchi faslida antroponimlarning asosiy xususiyatlari, ayniqsa, o‘zbek-tojik xalqlarining milliy ismlari va arabcha o‘zlashma antroponimlarning sifatleri haqida so‘z yuritilgan. Masalan, o‘tmishda odamlar o‘zlarini kuchli hayvonlarning ma’lum bir zotiga mansub deb hisoblaganliklaridan *Sher, Palang, Arslon, Yo‘lbars* kabi ismlarni tanlagan bo‘lsalar, *Tursun, Boqi, Ug‘ul, Tolib, Orzu, Umed, Istam, Istad, Monad, Po‘lod, Sangin, Temur* kabi ismlarga o‘z orzu-niyatlarining ifodasi sifatida murojaat etishgan. Shuningdek, xalqimizda *Rasul, Xudoynazar, Tangriberdi, Olloyor* kabi diniy e’tiqod va xurofot bilan bog‘liq, *Navro‘z, Odina, Juma, Safar, Ramazon, Ashur, Chorshanbe, Rajab* kabi voqea-hodisalar, tug‘ilish vaqti bilan aloqador ismlar ham mavjud. Umuman, kishilarning otlari, nomlash an’analari haqida ham bir qancha fikrlar mavjud bo‘lib, bu an’analari har bir xalqning urf-odatleri bilan bevosita bog‘liqdir. Bundan tashqari, har bir antroponim ortida milliy madaniyat belgilarini kuzatish mumkin. Shu jihatdan tojik va o‘zbek xalqlarining ism tanlash an’analari bilan bog‘liq ayrim masalalarni quyidagicha sanab o‘tish mumkin:

– “katta” va “kichik” ismlarning mavjudligi, ya’ni asl ismni undan bolalarga zarar yetmasligi maqsadida yashirish va “kichik” ismdan foydalanish;

⁸ Гафуров О. Шархи исму лақабҳо. – Душанбе: Ирфон, 1961. – С.5.

- *ba'zi ismlarning "og'ir" bo'lgani uchun shaklini o'zgartirish;*
- *nomlashda ajdodlar ismidan foydalanish;*
- *ism tanlashda so'zning ma'nosini hisobga olish va shu ism bilan atalgan tarixiy shaxslar obraziga e'tibor berish;*
- *bilimdon va yoshi ulug' insonlarga ism qo'yish vazifasini yuklash va boshqalar.*

Arabcha ism va laqablarni o'rganishning ahamiyati haqida gap ketganda shuni aytish kerakki, arab madaniyatining muhim bo'lagi bo'lgan ism va laqab tanlash an'anasi Markaziy Osiyo xalqlari, ayniqsa, tojik xalqining muhim madaniy merosiga aylangan. Ism qo'yish an'alarining ana shunday o'zlashtirilishi natijasida tojik-o'zbek xalqlarida ism, laqab, kunya, taxallus, na't, faxriy ism va unvonlar kabi tushunchalar keng tarqalib, aksariyat hollarda ikkinchi darajali ismlar ortidan asl ismlar ko'rinmay qolgan.

Tadqiq qilingan tarixiy asarlardagi antroponim va arab laqablari xususidagi etimologik qarashlarning ahamiyatini ko'rsatadigan yana bir fakt shuki, unvon va laqab tanlash musobaqasining boshlanishi IX-XI asrlarning "muhim topilmalaridan" bo'lib, tarixchilarning bir guruh ismlarning kelib chiqishi, asoslari va ma'nosini tushuntirishdagi xabarlari birinchi va ko'pincha, yagona manba sifatida e'tirof etiladi. Xususan, IX-X asrlardan boshlab arab xalifaligiga qarashli o'lkalarda turli kasb va mansabga oid laqab va unvonlar paydo bo'lib, odamlarning ayni laqablari bilan shuhrat qozonishiga olib keldi. Natijada xalifa Abulabbos Abdulloh ibn Muhammadning *Saffoh*, xalifa Ma'munning eronlik sarkardasi Tohir ibn Husayniyning *Zul-yaminayn*, xalifa Ma'munning sarlashkari Sahl ibn Fazlning *Zur-riyosatayn*, lashkarboshi Zaydning *Zayd-un-nor*, Hakim ibn Atoning *Muqanna*, Yazid ibn Validning *an-Noqis* kabi laqablari o'z egalarining asl ismlaridan ko'ra ko'proq shuhrat qozongan.

Darhaqiqat, antroponimlar haqiqatini o'rganishda ularning ma'nosi va etimologiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lgani uchun tilshunoslik fani eng qadimgi manbalarga tayanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, X-XIII asrlarga oid fors-tojik tarixiy asarlarini mashhur ismlarning etimologik tahlillari ko'p berilgan eng qadimgi manbalar qatoriga kiritish mumkin. Bu davr tarix kitoblarida biz nafaqat yuzlab qadimiy antroponimlarni uchratamiz, balki ulardan ayrimlarining aniq lingvistik va etimologik tahliliga ham duch kelamiz.

Tadqiq etilayotgan tarixiy asarlarda arabcha ism va laqablarni ifodalovchi lug'aviy birliklar soni ko'p bo'lib, ularning tahlili tojik xalqi ajdodlarining ism tanlash odatlarini yoritishda ham katta yordam beradi.

Tarixiy manbalardan olingan xulosalarga asoslansak, arablarda o'g'il farzandlilik iftixor belgisi bo'lib, hatto farzandning ismi otaning "faxriy unvoni", ya'ni kunyasini tashkil etgan. Shu holatga taqlidan xalqimiz orasida er va xotinning bir-biriga to'ng'ich farzandlarining ismlarini aytib murojaat qilishlari, dalil o'rnidagi katta ehtimol bilan, arab kunyalarining ta'siridir.

O'zlashma arabcha ismlar borasidagi yana bir muhim jihat shuki, arabcha laqab va kunyalar xalqimiz tomonidan haqiqiy ism sifatida qabul qilingan. Masalan, *Abudovud*, *Abuabdulloh*, *Abulqosim* kabi ismlar arablarda kunya hisoblanib, "Dovud, Abdulloh va Qosimning otasi" degan ma'noni bildiradi. Mazkur otalikka ishora qiluvchi ismlar bizning xalqlarimiz orasida asl ism sifatida

